

HURMAT NUTQINING LEKSIK-SEMANTIK IFODALARI

G.A.To‘lanboyeva

Farg‘ona davlat universiteti, Ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi

gulsanamtulanboeva88@gmail.com

D.I.Mirzayeva, f.f.f.d., dotsent

Farg‘ona davlat universiteti,

Ingliz filologiyasi kafedrası mudiri

Annotatsiya

Nutq bu faqatgina gapirish, so‘zlash, so‘zda idrok etishgina emas, balki ushbu og‘zaki yoki yozma xabarni *tinglash* hamdir. Uning davomiyligi cheklangan bo‘lib, har bir so‘z ma‘lum bir vaqt davom etadi va talaffuz jarayoni o‘z nihoyasiga yetadi. Har bir bo‘g‘in va har bir jumla, gap so‘zlab bo‘lingach, mavjudlik to‘xtaydi, faqat uni idrok etganlar xotirasidagina davom etadi.

Annotation

Speech is not only speaking, speaking, understanding in words, but also listening to this oral or written message. Its duration is limited, each word lasts a certain time and the pronunciation process ends. After each syllable and each sentence, sentence, the existence ceases, it continues only in the memory of those who perceive it.

Аннотация

Речь – это не только говорение, говорение, понимание слов, но и прослушивание этого устного или письменного сообщения. Его продолжительность ограничена, каждое слово длится определенное время и процесс произношения заканчивается. После каждого слога и каждого предложения, предложения существование прекращается, оно продолжается лишь в памяти тех, кто его воспринимает.

Kalit so‘zlar

Nutq, tinglash, gapirish, davomiylik, vaqtinchalilik, xususiylik, moddiylik, og‘zaki, yozma nutq, grammatikachilar.

Keywords

Speech, listening, speaking, duration, temporality, specificity, materiality, oral, written speech, grammarians.

Ключевые слова

Речь, аудирование, говорение, продолжительность, временность, специфика, материальность, устная, письменная речь, грамматисты.

Inson nutqiga har bir tilshunos olim o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqib turlicha ta’rif berganlar. Nutq – insonlarning ongida mavjud bo‘lgan, til imkoniyatlarini o‘g‘zaki yoki yozma shakllarda o‘z aksini topishi. Misol uchun talaffuz qiladigan so‘z, gaplarimiz, yozadigan xabarlarimiz nutq hisoblanib, bizning tilga oid bilim hamda ko‘nikmalarimizning hosilasidir. Ya’ni tovushlar (undoshlar va unlilar) so‘zlarni hosil qilish uchun ketma-ketlikda ishlab chiqariladi. Nutq tovushlarini ishlab chiqarishda mushaklar, nervlar va miyaning til, lablar, tanglay va jag‘ning harakatlarini rejalashtirish va bajarish uchun birgalikda ishlashini o‘z ichiga oladi.

“Odatda grammatikachilar: “tildan foydalanish bu til orqali bizning istaklarimiz va xohishlarimizni ifoda etishdir, ammo aslida, aql-idrok bilan, o‘z ehtiyojlarini qanday qilib sir saqlashni eng yaxshi bilishdir, va nutqning haqiqiy ishlatilishi bizning istaklarimizni ifodalash uchun emas, balki ularni yashirish, sir saqlash uchundir” [<http://name.umdl.umich.edu/004890962.0001.000>] – deya ta’kidlagan Oliver Goldsmis.

“Ziyoli va madaniyatli jamiyatda hayotimizning ko‘p qismi harflar va matn sifatida yozilgan nutq bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, bo‘shliqlar harflar va so‘zlarni ajratib turadi, lekin og‘zaki tilda bu xususiyat yo‘qligini tushunishni biroz qiyinlashtiradi. Agarchi biz nutqni chiziqli ravishda yozsak, idrok qilsak va (ma'lum darajada) ongli ravishda qayta ishlasak-da bir tovushdan keyin boshqasi - qulog‘imiz duch keladigan alohida ajratilgan bitlardan iborat emas, barchasi o‘xshash. Bu bizning lingvistik qobiliyatimizning hayratlanarli jihati, ammo keyingi fikrda bu juda foydali ekanligini ko‘rish mumkin. Nutqning bir nechta lingvistik hodisalar haqidagi ma’lumotlarni parallel ravishda kodlashi va uzatishi, nutq signalining shaxslar

o‘rtasida ma’lumotlarni kodlash va yuborishning juda samarali va optimallashtirilgan usuli ekanligini anglatadi. Nutqning bu xususiyati *parallel uzatish* deb nomlanadi”.(Dani Byrd and Toben H) [<http://www.discoveringspeech.wiley.com/>]

Nutq bu faqatgina gapirish, so‘zlash, so‘zda idrok etishgina emas, balki ushbu og‘zaki yoki yozma xabarni *tinglash* hamdir. Deyl Karnegi - ushbu mashhur psixolog hamda notiq nutq haqida so‘z ketganda quyidagicha fikr bildirgan edi: “yaxshi suhbatdosh-yaxshi gapirishni emas, yaxshi tinglaydigan, yaxshi tinglashni biladigan suhbatdosh”. Nutq bu til deb ataladigan, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklarining namoyon bo‘lishi, ularning obektiv mavjudot, fikrlash va vaziyat bilan zarur, doimiy munosabatda bo‘lish imkoniyatlaridir. Tillar shartli belgilar sifatida xizmat ko‘rsatishga asoslangan og‘zaki nutqning barcha turlari hisoblanadi. [Nilufar Dilmurodova. Specific Features Of Oral And Written Speech// International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities Hosted from Hamburg, Germany. 2022.-B. 313,314.]. Nutq orqali biz kommunikativ ya’ni muloqot harakatini tushunamiz, bu orqali odam o‘z fikrlarini bir qator tartibli va bo‘g‘inli tovushlarda ya’ni (so‘zlarda) amalga oshiradi. Nutq bu ma’noda va an’anaviy tilshunoslikka ko‘ra, ma’lum bir tilda mavjud bo‘lgan tovushlar, ma’nolar va me’yoriy tamoyillar orqali fikrni ifodalash va yetkazish demakdir. Olim va struktural tilshunoslik asoschisi Ferdinand de Sossyur o‘zining “Umumiy tilshunoslik” (1916) asarida “Til va nutq alohida – alohida tushunchalar, ammo bir-birini to‘ldiradi” deya ta’kidlagan.

Nutq haqidagi izlanishlar u haqidagi bir qancha umumiy va maxsus xususiyatlarni oydinlashtirdi:

1. Xususiylik

O‘zining barcha so‘zlovchilariga teng ravishda tegishli bo‘lgan *tildan* farqli o‘laroq, nutq *shaxs* yoki *ularning guruhiga* tegishli masaladir, chunki nutq har bir shaxs yoki kichik guruh tomonidan o‘ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Shunday qilib, har bir shaxs qayerdan kelganiga qarab o‘z nutq uslubiga ega, chunki har bir jamoaning faqatgina aynan o‘ziga xos nutq uslubi mavjud. Bundan tashqari, nutqning

amalgam oshirilishi ularning anatomiya(tuzilishi)siga va individual sotsiolingvistik xususiyatlariga ham bog‘liq.

2. Moddiylik

Ovoz to‘lqinlari kodlangan ma’nomalarni tashuvchi vositalardir.

Nutq moddiydir, chunki u havo o‘pkadan tomoq orqali o‘tganda chiqaradigan bo‘g‘inli tovushlardan iborat bo‘lib, vokal kordlarini turli yo‘llar bilan tebratadi va tovush hosil bo‘ladi.

3. Vaqtinchalilik

U so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga tomon jo‘natiladigan tovush to‘lqinlarida kodlangan ma’nomalardan iborat bo‘lgani uchun, bu to‘lqinlar chiqarilishini to‘xtatgandan so‘ng nutq yo‘qoladi. Uning davomiyligi cheklangan bo‘lib, har bir so‘z ma’lum bir vaqt davom etadi va talaffuz jarayoni o‘z nihoyasiga yetadi. Har bir bo‘g‘in va har bir jumla, gap so‘zlab bo‘lingach, mavjudlik to‘xtaydi, faqat uni idrok etganlar xotirasidagina davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nilufar Dilmurodova. Specific Features Of Oral And Written Speech// International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities Hosted from Hamburg, Germany. 2022.-B. 313,314.
2. Y.S.Gryshchenko. Linguoculturology as an actively developing field of linguistics.//National Technical University of Ukraine “Kyiv Polytechnic Institute”. B 1,2
3. <http://www.discoveringspeech.wiley.com/>
4. <http://name.umdl.umich.edu/004890962.0001.000>
5. Mirzayeva, D. (2019). The concept of " friendship" in uzbek and english linguistic culture. *Мировая наука*, (11 (32)), 29-32.
6. Mirzayeva, D. (2021). Proverbs and sayings as a product of the nation's cognitive thinking.